UO‘K 94(575.1):902/904:39

O‘ZBEK MADANIYATIDA RAMZIY KODLAR

(*madaniy-antropologik tahlil*)

A.A. Azizov

Maqolada o‘zbek madaniyatiga xos ramziy kodlar o‘rganilgan. Og‘zaki xalq ijodi namunalari, arxeologik topilmalar, yozma manbalar, etnologik va dala tadqiqotlari materiallari asosida osmon, o‘simlik va hayvonot olami bilan bog‘liq ramziy kodlar aniqlangan. Ularning mazmuni, semantikasi va madaniy ahamiyati tahlil qilinib, mazkur kodlarning o‘zbek xalqining ijtimoiy hamda diniy hayotidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, ramziy kodlar, marosim qo‘shiqlari, kodlangan xabarlar, madaniy meros.*

В статье исследуются символические коды, присущие узбекской культуре. На основе образцов устного народного творчества, археологических находок, письменных, этнологических и полевых материалов выявляются символические коды, связанные с небесным, растительным и животным миром. Анализируются их содержание, семантика и культурное значение, а также раскрывается роль этих кодов в социальной и религиозной жизни узбекского народа.

Ключевые слова: *узбекская культура, символические коды, устное народное творчество, археологические источники, этнологические материалы, символика, народные традиции, религиозная культура.*

KIRISH

O‘zbek folklori xalq madaniyatini tadqiq etishdagi eng muhim manbalardan biri sanaladi. Ushbu manba bir necha ming yillar davomida shakllangan va turonliklarning turmush tarzi, xo‘jaligi, olam, o‘simlik, hayvonot olami bilan bog‘liq tasavvurlarini o‘zida mujassam etgan. Ushbu yirik durdonaning bir qismi hisoblangan marosim qo‘shiqlarida o‘ziga xos ramzlar yashiringan bo‘lib, o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Bugungi kundacha o‘zbek xalq og‘zaki ijodi qadimdan mavjud bo‘lgan kishilar hayotidagi muhim bilimlarni tashib kelmoqda va keyingi avlodga har bir ko‘nikmani tushuntirib kelmoqda.

O‘zbek marosim qo‘shiqlarida yashiringan kodlar semiotik ramzlar bo‘lib, ular konnotativ ahamiyatga ega. Tarixda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar ideallashtirib yoki konnotativ tarzda turli maqol, matal, qo‘shiqlarda ifoda etilgan. Ideologiyaning konnotativ fenomen bilan bog‘lanishi Rolan Bart [1] nazariyasi bo‘lib, uning xulosalariga ko‘ra, bo‘lib o‘tgan hodisalar muayyan vaqt o‘tishi bilan xalq ongida akslanadi. Ongda saqlanib qolgan tushunchalar va tasavvurlar turli ko‘rinishlarda avloddan avlodga o‘tib boradi.

Xalq og‘zaki ijodida bunday kodlarning ramz sifatida akslanishi A.Tilovov, T.Mirzayev, M.Jo‘rayev [2; 3], Sh.Turdimov [4], B.Sarimsoqov [5], Z.Suyunova [6], A.Ashirov [7; 8], H.Karomatov [9], Q.Nasriddinov [10] tadqiqotlarida tahlil qilingan. Ayniqsa, marosimiy qo‘shiqlarda yashiringan kodlar xususida olib borilgan izlanishlar alohida ahamiyatga ega. Ularda yashiringan kodlar eng qadimgi davrlardan konnotativ holatda saqlanib kelmoqda.

MATERIAL VA USULLAR

“Oy oldida bir yulduz: O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari” [2], “Navro‘z qo‘shiqlari” [3], “Avesto: Yasht kitobi” [13], “Shoda-shoda marvarid: O‘zbek xalq qo‘shiqlari” [15], “Gulyor. Farg‘ona xalq qo‘shiqlari” [18] hamda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) [16] kitoblarida berilgan maqol, matal, qo‘shiqlardan material sifatida foydalanildi.

Maqolada qiyosiy tahlil, etnologik tahlil, semiotik tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Xalq og‘zaki ijodida kodlar xabarchi, sirli ma’lumotlarni tashuvchi sifatida ahamiyat kasb etadi. Xususan, qadimgi davrlardan ajdodlarimiz o‘zlarining mashg‘ulotlari sir-sinoatlarini, amalga oshiradigan tadbirlarining nozik jihatlarini yashirin xabar sifatida yuborishgan. Xabarlarni yashirib matn yozish fani steganografiya, keyinchalik kriptografiya nomlari bilan atalgan [1. B. 291]. Yashirin mazmun orqali kishilar o‘z xabarlarining havfsizligini ta’minlaganlar hamda begona kishilar uni tushunmaydigan tarzda ijro etganlar.

Xalq marosim qo‘shiqlarida qadimiy e’tiqodiy qarashlar, olam va odam bog‘liqligi, tabiat hamda unda yashiringan kuchlar xususidagi kodlar uchraydi. Ushbu kodlar semantik kodlar bo‘lib, ularning tahlilini amalga oshirish boshqa qo‘shiqlardan ancha murakkabligi bilan ajralib turadi [5. B. 96]. Marosim qo‘shiqlari o‘zida turli tarixiy davrlardagi qarashlarni qorishiq tarzda aks ettiradi va o‘tkaziladigan marosimlarning vazifalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Marosim qo‘shiqlarida qo‘llanuvchi ramzlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- samo jismlariga oid kodlar;
- birinchi kun magiyasiga oid kodlar;
- tabiat bilan bog‘liq kodlar;
- ruhlar olami bilan bog‘liq kodlar;
- raqamli kodlar;
- rangli kodlar va boshqalar.

Ramziy kodlar kishilarning kundalik hayoti, diniy marosimlariga oid qimmatli ma’lumotlarni tashigan. Ular nafaqat marosim qo‘shiqlarida, balki ibora, maqol va ertaklarda ham uchraydi.

Samo jismlariga oid kodlar kishilarning olam yaralishi, samo jismlari, samo jismlarining kishilar hayotidagi ahamiyati, ob-havoning qanday kelishi bilan bog‘liq qarashlarini aks ettiradi.

Xalq qo‘shiqlarida samo jismlariga oid kodlarning tilga olinishi bevosita qadimdan muhim ahamiyat kasb etgan samo jismlariga va ishlab chiqilgan taqvimga tegishli tasavvurlar hisoblanadi. Xususan, qadimgi kishilar quyosh, oy, yulduzlarning hayotiy sikldagi o‘rnini yaxshi tushunganlar hamda ulardan xo‘jalik, diniy hayotdagi muhim qarorlarni qabul qilishda foydalanilgan. Masalan, “Oy oldida bir yulduz” xalq qo‘shig‘ida quyidagi satrlar bor:

Kelin kelgan eshikni
O‘rda denglar yor-yor,
Ot bog‘lagan qoziqni
Tillo denglar yor-yor [2. B. 56].

Ushbu satrlardagi “Kelin kelgan eshikni O‘rda denglar yor-yor” iborasi taqvimga oid ma’lumotlarni tashiydi. Unga ko‘ra, kelinchak oyga, o‘rda, ya’ni kelinchak yetib kelgan eshik esa oyning necha kunlik bo‘lganiga ishora qiluvchi kod hisoblanadi. Demak, oyning o‘zgarishlariga qarab necha kunlik bo‘lgani ma’lum atamalar asosida keltirilib, shu muddatga diqqat qaratish talab etilgan. Qo‘shiqning “Ot bog‘lagan qoziqni Tillo denglar yor-yor” satrlari esa yulduzga nisbat berilgan kod hisoblanadi.

O‘zbek xalqi orasida tilla yoki temir qoziq yo‘l ko‘rsatuvchi sanalgan Qutb yulduziga nisbatan qo‘llanadi. Qutb yulduzining yorqin yoki xira holatda chiqishi ob-havoning o‘zgarishi, yulduzning holati esa kirib kelayotgan burj xabarini bergan. Bunday qarashlar 11-yuzyillikdayoq xalq og‘zaki ijodida aks ettirilgan. “Qutadg‘u biligda” esa Yusuf Xos Hojib Navro‘z haqida shunday degan:

Quyosh qaytdi yana kelib o‘rniga,
Baliq quyrug‘idan Qo‘zi burniga.

Baliq Hut burijdan Qo‘zi Hamal yulduzlar turkumiga o‘tdi degan mazmunni anglatadi [12. B. 8]. Demak, quyosh, oy va yulduzlarga bog‘liq yilning boshlanishi, fasllar almashinuvi, ob-havodagi o‘zgarishlar kabi holatlarni bildiruvchi kodlar xalq qo‘shiqlarida saqlanib kelmoqda. Ushbu kodlar o‘ta muhim xalq bilimlarini avloddan avlodga yetkazish vazifasini bajarishi nazarda tutilgan. Samo jismlari kodlari faqatgina xo‘jalikka oid tushunchalar ramzi bo‘libgina qolmasdan, balki davlatchilikning bosh ramzlaridan biri sanalgan [9. B. 333]. Qadimiy e’tiqodiy qarashlarda osmon jismlari muqaddaslashtirilgan. Xususan, quyosh va yulduz zardushtiylikdagi Mitra, Vanant, Tishtriya kabi ilohlar sifatida tasavvur etilgan [13. B. 5]. Ushbu ma’budlar jamoa yoki davlatning homiysi sifatida muhrlar, tangalar, bezaklardan o‘rin olgan.

Xalq qo‘shiqlarida mavjud yana bir ramz samoviy kod sanaladi. Bu sunbula, ya’ni mehrsiz ma’shuq ramzi bo‘lib, taqvimdagi 24-avgustdan 23-sentyabrgacha bo‘lgan davrni bildirgan. Aynan shu oydan havo soviy boshlaydi. Shuningdek, sunbula ayni pishiqchilik davri sanalgan. Bundan tashqari, sunbula salqinlikni, iliqlikni yoqtiradigan o‘ismlik bo‘lib [4. B. 131–132], bu kod quyoshning qizitish darajasi pasaya boshlagan muddatni bildirgan. Bu oy ramzining xalq qo‘shiqlarida keltirilishi ekin-tikin taqvimiga oid kodga nisbat berilgan. Ushbu oyda kuzgi bug‘doy ekish ishlari amalga oshirilgan. Chunki bug‘doy qancha vaqtli ekilsa, hosil ham shunga yarasha ko‘p bo‘lgan. Xususan, kuzgi bug‘doy sunbula (sentyabr) oyida ekilgan bo‘lsa, bug‘doyning bitta boshog‘ida 82–85 dona bug‘doy pishib yetilgan [14. B. 43–44]. Demak, qo‘shiqlarda tilga olingan sunbula kuzgi ekin

ishlarini bildiruvchi taqvimga oid bilimlar xabarini bildirgan. Kishilar hayotida bu kabi muddatlar juda katta ahamiyat kasb etgan. Shu vaqtda o‘z xo‘jaligiga tegishli vazifani bajarishga chaqiriq yoki maslahat sifatida tushunilgan.

Xalq og‘zaki ijodida osmon jismlariga oid kodlarni mujassam etgan yana bir namuna bolalarni parvarishlash bilan bog‘liq marosim qo‘shiqlari hisoblanadi. Xususan, barcha onalar kuylaydigan alla qo‘shig‘i samo jismlariga oid bir qancha konnotatsiyalarni saqlab keladi. Allada “charog‘im (quyosh)”, “oyim”, “yulduzim” kabi erkalash sifatida qo‘llangan ramziy kodlarni uchratish mumkin.

Osmondagi yulduzim-o, alla,
Yum-yum ko‘zing, qunduzim-o, alla.
Kecha qonib uxlasang-o, alla,
Quvnoq o‘tar kunduzing-o, alla.
Alla-yo, alla [6. B. 15].

Osmon jismlarini ramziy kod tarzida alla qo‘shig‘ida o‘xshatish sifatida aks ettirishning bir qancha maqsadlari bor. Bu erkalash va o‘xshatish orqali borliqdagi eng qudratli samo jismi “charog‘”, ya’ni quyosh yoki yo‘l ko‘rsatuvchi yulduz “yo‘lchi yulduz” – “qutb yulduzi” [4. B. 9] keyingi avlod yo‘llarini yorituvchi, yo‘l boshlovchi darajasiga chiqishini, martabasi ulug‘ bo‘lishini niyat qilib qo‘llangan konnotatsiya hisoblanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida *birinchi kun magiyasiga oid kodla*mi talaygina uchratish mumkin. Bunday kodlar ibora, maqol, qo‘shiq, ertak kabi xalq og‘zaki ijodi namunalarida aks ettirilgan. Unga ko‘ra, birinchi kunga alohida e’tibor qaratilib, shu kunni qanday o‘tkazilsa, keyingi kunlar ham shu zaylda o‘tishiga ishonch shakllangan. Shu sababli kishilar yangi yilning birinchi kunini to‘kin-sochinchilikda, shod-xurramlikda o‘tkazishga intilganlar [5. B. 52]. Navro‘z bayrami birinchi kun magiyasiga oid tasavvurlarni o‘zida aks ettirgan. Kishilar uni yana “Yilboshi” deb ataydilar va shu kungi sayl qanchalik yaxshi o‘tkazilsa, yil shunday kelishiga ishonishadi. Navro‘zga bag‘ishlangan marosim qo‘shiqlarida ushbu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, Navro‘z chorlovi qo‘shig‘ida shunday satrlar tilga olinadi:

Navro‘z nishonasi bu,
Bobo dehqon ish boshlar.
Ezgu niyat bilan u
Yeriga urug‘ tashlar,
Keling Navro‘z sayliga,
Siz ham keling mayliga [3. B. 15].

Navro‘z kishilar uchun muhim sana – “Yilboshi”, ya’ni yilni boshlash kuni bo‘lgan. Shu kunda katta sayl tashkil etilib, barcha unda qatnashgan. Bobo dehqon* shu kunda ekinni ekishni boshlashiga ishonch bo‘lib, shu kundan ekin ekishni boshlash xosiyatli deb qaralgan. Shu sababli kishilar Navro‘zni ko‘tarinki kayfiyatda sayllar tashkil etgan holda o‘tkazishga harakat qilganlar.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida *tabiat bilan bog‘liq kodlar* mavjud bo‘lib, ularda o‘simlik hamda hayvonot olamiga oid yashirilgan ma’lumotlarni uchratish mumkin. Aynan ushbu jihatga oid kodlar o‘zbek folklorida salmoqli hisoblanadi.

Qo‘shiqlarda eng ko‘p qayd etiladigan tabiat manbalaridan biri tog‘ tushunchasi sanaladi. Xususan, “Galdir” yoki xalq orasida “Beqasam to‘nlar kiyib” deb ataladigan qo‘shiq so‘zlarida ushbu kod ko‘zga tashlanadi:

Ko‘hi Qofdan keladi
Sharsharining ovozasi.
Bevafo bir yor uchun
Bo‘ldim jahon ovorasi [15. B. 41].

Tog‘ muqaddaslashtirilgan tabiat birliklaridan biri bo‘lib, ushbu e’tiqodiy siymo shomonlik diniy qarashlariga borib taqaladi.

Tog‘ bilan bog‘liq e’tiqodiy tasavvurlar turli davrlarning tarixiy, adabiy manbalarida saqlanib qolgan. 11-yuzyillik manbasi “Devonu lug‘otit turk”da “Tengri tag‘ birla yerig basurdi” iborasi qayd etilgan bo‘lib, u “xudo yerni tog‘lar bilan bostirib qo‘ydi” [16. B. 80] qabilidagi ma’noni anglatgan. Shuningdek, hozirgi kunda ham xalq orasida “Tangrinng jamolini ko‘rmoqchi bo‘lsang, toqqa bor” jumlasi mavjud. Bundan tashqari, xalq qo‘shiqlarida tog‘ bilan bog‘liq shunday so‘zlar saqlanib keladi:

Sansan tog‘larning podshohi,
Buzruklarning qadamgohi,
Jami azizlar arvohi,
Ali manzillaring sening,
Jami vahshi makonisan,
Chilton suhbat qo‘rg‘onisan [4. B. 55–57].

Yuqoridagi satrlar ham 11-yuzyillik tasavvurlari aks etgan ma’lumotlar va xalq orasidagi “Tangrining jamolini ko‘rmoqchi bo‘lsang toqqa bor” iboralari bilan hamohangdir. Chunki shomonlikda tog‘ muhim hayot manbalaridan biri hisoblangan va tog‘ yo‘llaridan o‘tishda maxsus marosimlar bajarilgan. Qo‘shiq-

* Bobo dehqon o‘zbeklarda dehqonchilikning piri sanalgan. Ekin ishlarini boshlashda uning nomiga duo qilinib, barcha tadbirlar boshlangan. Turkiy xalqlar orasida dehqonchilik homiysi sifatida tasavvur etilgan va islom dini qaror topgach uning siymosi Xo‘jai Xizrga o‘zgargan.

lardagi va iboralardagi ishoralar tog‘ dovonlaridan o‘tish oldidan toqqa bag‘ishlab o‘tkazilib kelingan marosim izlari bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, islom dini qaror topganidan keyin ham ushbu tasavvurlar aholi xotirasida saqlanib qolgan va tog‘ to‘g‘risidagi tasavvurlar islom diniga oid qarashlar bilan qorishib ketgan.

Islomiy qarashlarda tog‘ bilan bog‘liq bir qancha tasavvurlar saqlanib qolgan bo‘lib, ulardan biri Nuh alayhissalomning kemasi to‘xtagan toqqa oid qarashlardir. Bunday qarash O‘zbekistonning tog‘li hududlari aholisi xotiralarida saqlanib kelmoqda. Masalan, XIX asrda o‘lkamizga kelgan sayyohlardan biri Farg‘ona vodiysidagi Qoziqurt tog‘ida Nuh alayhissalom kemasi to‘xtaganiga kishilar ishonishini alohida qayd etib o‘tgan [17. B. 36]. Demak, bir necha ming yil o‘tishiga qaramay, tog‘ kodi xalq og‘zaki ijodida kishilarning qadimiy e’tiqodiy qarashlari va marosimlariga oid ma’lumotlarni o‘zida saqlab kelmoqda.

O‘simlik dunyosi kishilar hayotida alohida o‘ringa ega. Ushbu jihatga oid talaygina ma’lumotlar ramz sifatida xalq og‘zaki ijodida kodlangan. Masalan, “gul” kodi orqali tabiatning har yili qayta yangilanishi ifoda etilgan.

Qizil gul bo‘lmagay erdim, ochilib so‘lmagay erdim,
Bu na qayg‘u, bu na hasrat, jahonga kelmagay erdim [18. B. 29].

Xalq og‘zaki ijodida lola, rayhon, sunbula, tol kabi har bir o‘simlik turining qo‘llanishida o‘ziga xos mazmun ko‘zlangan bo‘lsa-da, barcha o‘simliklar birinchi navbatda bahor fasli kelishi xabarini bildirgan. Ushbu jihat bahor bayramlari sayillarida aytiladigan qo‘shiqlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Kodlar bir qancha turlarga mansub bo‘lib, xilmaxil jihatlarni o‘zida mujassam etadi. Ana shunday o‘ziga xoslaridan biri *ruhlar olami bilan bog‘liq kodlar* hisoblanadi. Bunday kodlar konnotativ ifoda asosida xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydi.

Ruhlar olamiga oid kodlar marsiyalarda, xususan, yig‘i (motam) qo‘shiqlarida saqlanib keladi:

Oylar qiyolab botarmi, voy otam,
Kunlar qiyolab o‘tarmi, voy otam?
Sizning qurgan joyingizda, voy otam,
O‘rgimchak uyalab yotarmi, voy otam? [18. B. 218]

Mazkur satrlarda tilga olingan kod marhumga murojaat qilish orqali aks ettirilgan. Unga ko‘ra, marhumga uning mulki, o‘zi barpo etgan uy qarovsiz qolganligi, begona kishilar uni egallab olganligini bildirish orqali murojaat qilingan.

Yana bir guruh kodlarga *raqamli kodla*ni keltirish mumkin. Ushbu jihat xalq tasavvurlaridagi ma’lum bir raqamlarga bog‘liq qarashlarni o‘zida ifoda etadi. Xususan, o‘zbek madaniyatida yetti, uch, qirq kabi raqamlar bilan bog‘liq talaygina kodlar uchraydi. Masalan, xalqimizda “yetti qavat yer osti”, “yetti falak”, “yetti mo‘jiza”, “to‘qqiz tug‘” kabi tushunchalar mavjud [10. B. 109]. Ushbu tushunchalar kishilarga o‘ziga xos sirli bilimlarni yetkazishga mo‘ljallangan kod sanaladi. Masalan, qirq kunlik muddat – chilla sakral xarakterga ega tushuncha bo‘lib, yovuz ruhlardan, kuchlardan saqlanish yoki saqlash maqsadida shu muddat oralig‘ida kishilar begonalarga ko‘rinmaganlar [17. B. 25]. Demak, raqamli kodlar kishilarga ma’lum bir marosim muddati, amallarning davomiyligi xabarini saqlab kelgan bo‘lishi mumkin. Keyinchalik bunday bilimlarning bir qismi islomiy tasavvurlar bilan qorishib yoki unut bo‘lib ketgan.

Rang bilan bog‘liq kodlar o‘ziga xos yana bir alohida ramziy konnotatsiyalar guruhi bo‘lib, ular orqali ijtimoiy tartib, madaniy mansublik yoki ma’lum bir holat bildirilgan. Ular orqali kishilar o‘zaro munosabatlarda bildirmoqchi bo‘lgan xabarlarini kodlaganlar va yoki barchaga taniqli belgi bilan kishilarni ogohlantirganlar. Bu kabi namunalar ibora, maqol, qo‘shiq tarzida saqlanib keladi. Masalan, o‘zbeklarda motam holatidagi oila ayollari ko‘k ko‘ylak kiyganlar va ko‘k rangli ro‘mol o‘raganlar [8. B. 125]. Azadorlik vaqtida to‘y, sayil kabi yig‘inlarda bunday ayollar qatnasha olmaganlar. Natijada, ushbu rangga oid ibora paydo bo‘lib, u azadorlik holatini anglatgan. To‘ylar va shu kabi yig‘inlarda azadorligi sabab qatnasha olmaydigan ayollarga nisbatan “ko‘ki bor” jumlasi qo‘llangan.

Xalq madaniyatida aks etgan kodlar, R.Bart [1. B. 10–11] nazariyasiga ko‘ra, konnotativ tarzda shakllanadi. Ular orqali xalq turmush tarzida muhim bo‘lgan mashg‘ulotlarga oid muhim sanalar, davomiylik, marosimlarni barajarishning nozik tomonlari, shuningdek, qadimiy e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liq ishonch ko‘rinishlarini anglash mumkin. Bundan tashqari, ramziy kodlar xalq xulq-atvorini tadqiq etishda muhim sanaladi.

XULOSA

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ramziy ma’nolarni anglatuvchi kodlar bir necha ming yillar davomida shakllangan. Ular qadimiy e’tiqodiy qarashlar, olam to‘g‘risidagi tasavvurlar, kishilarning mashg‘ulotlariga oid muhim ma’lumotlarni yashirin holatda tashib kelgan. Madaniy kodlar muayyan jamoaga tegishli bo‘-

lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruh – barchaga bildirish, ma’lum qilish ko‘zlangan ma’lumot. Ikkinchi guruh – sirli, faqatgina sanoqli kishilar tushunishi ko‘zlangan kodlar.

Birinchi guruh kodlar orqali jamoa vakillariga ma’lum bir ishni boshlash muddati, yo‘sini, yo‘riqlari bildirilgan bo‘lsa, ikkinchi guruh kodlari harbiylar yoki tor doiradagi kishilarga tushunarli bo‘lgan ramziy xabarlarni o‘zida mujassam etgan. Demak, so‘zlar, ranglar yoki boshqa belgilar orqali kodli xabarlar boshqa kishilarga yetkazilgan. Keyinchalik ushbu kodlar ramziy ifodalar, o‘xshatishlar bilan qorishib ketgan. Madaniy kodlar iboralar, maqollar, xalq qo‘shiqlariga singib ketgan.

Adabiyotlar:

1. *Барт Р*. S/Z. Избранные работы. Семиотика. Поэтика / под ред. Г.К.Косикова. – 3-е изд. – Москва: Академический проект, 2009. – 373 с.

2. Ой олдида бир юлдуз: Ўзбек халқ маросим қўшиқлари / Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи – филология фанлари доктори М.Жўраев. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 160 б.

3. *Жўраев М*. Наврўз қўшиқлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 164 б.

4. *Турдимов Ш*. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – 192 б.

5. *Саримсоқов Б*. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.

6. *Suyunova Z*. An’anaviy xonandalik (Alla – mehr qo‘shig‘i). – Toshkent: Musiqa, 2016. – 95 b.

7. *Аширов А*. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – 32 б.

8. *Аширов А*. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 272 б.

9. *Кароматов Ҳ*. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008. – 664 б.

10. *Насриддинов Қ*. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. – 144 б.

11. *Reeds, J*. Solved: The Ciphers in Book III of Trithemius’s Steganographia. // Cryptologia. – 1998. – Vol. 22. Issue 4. – Pp. 291–317.

12. *Нарзиқулов А*. Деҳқон, боғбон ва чорвадор тақвими. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 64 б.

13. Авесто: Яшт китоби / М.Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ. 2001. – 128 б.

14. *Шахназаров А.И*. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург: Типография В.Ф.Киршбаума (отделение), 1908. – 555 с.

15. Шода-шода марварид: Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 416 б.

16. *Маҳмуд Кошғарий*. Девону луғотит турк. III томлик. 2-том / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1963.– 428 б.

17. *Назаров Ф*. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Санкт-Петербург, 1891. – 98 с.

18. Гулёр. Фарғона халқ қўшиқлари / Тўпловчи Ҳ.Раззоқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – 250 б.

SYMBOLIC CODES IN UZBEK CULTURE

(*cultural anthropologic analyze*)

Akhrorbek A. Azizov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2026. 3(95). 33-39.
[1]Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, 100060, str. Shakrisabz tor, 5 (Uzbekistan). E-mail: info@uzhistory.uz

Key words: Uzbek folklore, symbolic codes, ritual songs, coded messages, cultural heritage, oral folk art, ethnography.

This article is analyzed symbolic codes preserved through comparisons in the samples of Uzbek oral folk art. Symbolic codes are messages embedded within folklore, concealed in the form of words used as comparisons in idioms, proverbs, and songs. In ritual songs, these words functioned to disguise information and served to transmit specific messages. Only knowledgeable individuals among the people, and the generations initiated into the meaning of these codes, could correctly understand and effectively utilize these messages. To this day, these messages have not lost their significance, and these skills are considered an inseparable part of Uzbek culture. Through such secret coding, a number of concepts were conveyed to the listener, including the social and psychological state of people, auspicious days, as well as the procedure and duration of rituals. Over several millennia, this system has continually evolved and taken a permanent place in the samples of oral folk art.

In folk oral art, codes are important as messengers, carriers of secret information. In particular, since ancient times, our ancestors sent the secrets of their occupations, the subtleties of their activities as secret messages. The science of writing messages in a hidden manner was called steganography, and later cryptography. Through hidden content, people ensured the security of their messages and performed them in a way that strangers could not understand.

Folk ritual songs contain codes about ancient religious beliefs, the connection between the world and man, nature and the forces hidden in it. These codes are semantic codes, and their analysis is much more complicated than other songs. Ritual songs reflect the views of different historical periods in a mixed way and are closely related to the tasks of the rituals being performed.

These symbols used in ritual songs can be classified as follows:

- codes related to celestial bodies;
- codes related to the magic of the first day;
- codes related to nature;
- codes related to the world of spirits;
- numerical codes;
- color codes, etc. Each of the codes mentioned carries valuable information related to people's daily lives and religious rituals and is found not only in ritual songs, but also in phrases, proverbs, and fairy tales.

Codes that convey symbolic meanings in Uzbek folklore have been formed for several thousand years. They have been secretly carrying important information about ancient beliefs, ideas about the world, and people's occupations through connotation-analogies. They belong to a certain community, and such codes can be conditionally divided into two groups. The first group is information intended to be communicated to everyone. The second group is secret codes intended to be understood only by a few people.

The first group of codes provided representatives of the community with the date, method, and instructions for starting a certain task, while the second group of codes embodied symbolic messages understandable to military personnel or narrow circles of people. So, coded messages were conveyed to other people through words, colors, or other signs. Later, these codes were mixed with symbolic expressions and analogies. The codes created as a result of cultural mixing have become embedded in phrases, proverbs, and folk songs.

References:

1. Bart, R. (2009). S/Z. Izbrannye raboty. Semiotika. Poetika [Selected Works. Semiotics. Poetics]. Ed. by G.K. Kosikov. Moscow: Akademicheskij proekt.

2. Jurayev, M. Compiled, prepared for publication, author of the introduction and comments (2000). *Oy oldida bir yulduz: O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari*. [A Star in Front of the Moon: Uzbek Folk Ceremonial Songs]. Tashkent: Literary and Artistic Publishing House named after G.Gulyam.

3. Jurayev, M. (2007). *Navro‘z qo‘shiqlari* [The songs of Nawruz]. Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi.

4. Turdimov, Sh. (2020). *Xalq qo‘shiqlarida ramz* [Symbol in folk songs]. Tashkent: Fan.

5. Sarimsoqov, B. (1986). *O‘zbek marosim folklori* [The ceremonial folklore of Uzbeks]. Tashkent: Fan

6. Suyunova, Z. (2016). *An’anaviy xonandalik (Alla – mehr qo‘shig‘i)* [Traditional singing (Alla – a song of love)]. Tashkent: Musiqa.

7. Ashirov, A. (2001). *“Avesto”dan meros marosimlar* [The heritage from “Avesta”]. Tashkent: People’s Heritage Publishing House named after Abdulla Kadiri.

8. Ashirov, A. (2007). *O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari* [Ancient beliefs and rituals of the Uzbek people]. Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi.

9. Karomatov, H. (2008). *O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi* [History of ancient beliefs in Uzbekistan]. Tashkent: University of World Economy and Diplomacy.

10. Nasriddinov, Q. (1998). *O‘zbek dafn va ta’ziya marosimlari* [The funeral and condolence ceremonies of Uzbeks]. Tashkent: People’s Heritage Publishing House named after Abdulla Kadiri.

11. Reeds, J. (1998). Solved: The Ciphers in Book III of Trithemius’s Steganographia. *Cryptologia*. Vol. 22. Issue 4. Pp. 291-317.

12. Narziqulov, A. (1991). *Dehqon, bog‘bon va chorvador taqvimi* [The calendar of farmer, gardener and shepherd]. Tashkent: Mehnat.

13. Is’hakov M. (Trans.of). (2001). *Avesto: Yasht kitobi* [Avesta: The Book of Yasht]. Tashkent: Sharq.

14. Shahnazarov, A.I. (1908). Sel’skoe hozyajstvo v Turkestanskom krae [Agriculture in the Turkestan region]. Saint Petersburg: Printing house of V.F.Kirshbaum (branch).

15. (2006). *Shoda-shoda marvarid: O‘zbek xalq qo‘shiqlari* [A branch of pearl: Uzbek folk songs]. Tashkent: Sharq.

16. Mahmud Kashgari. (1963). *Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk)*. [The dictionary of turkic words (The Devan of dictionary of turk)]. Vol.2. Tashkent: Fan.

17. Nazarov, F. (1891). Zapiski o nekotoryh narodah i zemlyah srednej chasti Azii [Notes on some peoples and lands of Central Asia]. Saint Petersburg.

18. Razzokov, H. (Collector) (1967). Gulyor. *Farg‘ona xalq qo‘shiqlari* [The folk songs of Fergana]. Tashkent: Literary and Artistic Publishing House named after G.Gulyam.

Muallif haqida ma’lumot:

AZIZOV Ahrorbek A’zamjonovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi. E-mail: aahazizov@gmail.com